

**MUFTI MENKNING MOTIVATIONAL MOMENTS KITOBIDA
UCHRAGAN LEKSIK-SEMANTIK TRANSFORMATSIYALAR
YUZASIDAN TAHLIL**

*Karimov Suhrob Abdurahmonovich
Termiz Davlat Universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqola yozuvchi Mufti Menk qalamiga mansub Motivational Moments kitobining tarjima jarayonida yuzaga kelgan Tarjimonlikning leksik-semantik turlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *leksik-semantik transformatsiya, kontekst, umumlashtirish, mantiqiy aloqa, antonimik tarjima.*

Tarjima qilish-bu biz o'ylagandek bir so'zni o'zinigina hech qanday qonun-qoidalarsiz boshqa tilga ko'chirish degani emas albatta. Tarjimaning ham tabir joyiz bo'lsa o'ziga xos tosh-u tarozisi bor. Quyida biz shularga yuqoridagi asar bo'yicha maqola mavzusidan ma'lum bo'lgan tarjima turlari doirasida tanishgan bo'lamiz

Dastavval leksik-semantik transformatsiyalarning turlariga to'xtalamiz. Ushbu transformatsiyalar 5 xil hisoblanadi.

1. Kontekst
2. Umumlashtirish
3. Mantiqiy aloqa
4. Antonimik tarjima
5. Kompensatsiya

Birinchi turdagi transformatsiyamiz ya'ni so'zlarning ma'nosini kontekst orqali aniqlash bu-keng ma'noli hamda ma'nosini aniqlash qiyin bo'lgan so'zlarni tarjima qilishda qo'llaniladi. Yana ham aniqroq qilsak bu tur transformatsiya asliyat so'zga aniqlik kiritish yoki uni konkretlashtirish demakdir. Quyida ushbu tur asarimizning ham bir necha o'rinlarda kelganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan asarimizda mavjud ushbu jumlagi e'tiboringizni qarating u yerda aytilishicha When you control your anger, you earn His pleasure agar shu yerda biz to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak quyidagicha tarjima hosil bo'ladi, g'azabingizni jilovlay olsangiz u kishi(erkak)ning rahmati va huzur-xalovatiga erishasiz. Ko'rdingizmi to'g'ridan-to'g'ri tarjima doim ham biz o'ylagan natijaga olib kelmaydi. Tarjimamiz g'aliz va mujmal bo'lmasligi uchun yuqorida ta'kidlangan transformatsiya usulidan foydalanish qo'l keladi. Bundan kelib chiqadiki biz Ingliz yoki har qanday tildan tarjima amalga oshirayotganda avval shu tilda bizga nima deyilayotganining standart shaklini o'z tilimizdagi shaklini topib olmog' imiz lozim ekan. Umuman oladigan bo'lsak hech bir kitobni asliy tilidan tarjima tilga leksik-semantik transformatsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Tarjimaning aynan bu turi bo'yicha qator mutaxassislar tomonidan bir qator fikr-mulohazalar mavjud. Masalan shu kabi tushunchalardan biri L.S. Barxudarov tomonidan ilgari surilgan. U yerda aytilishicha transformatsiyani biri ikkinchisining asosida kelib chiqqan til yoki nutq birliklarining o'zaro munosabati deb ataydi.

Tarjimadagi transformatsiyaga esa tarjimada ekvivalentlik hamda adekvatlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan tillararo turli xil almashinishlarga aytiladi deb ta'kidlagan. Avval ta'kidlanganidek Motivational Moments kitobida ham bu tur transformatsiyalar bisyor. Masalan ushbu kitob tarjima jarayonida mana budo not worry about the noise and insults people make as you are trying to get closer to the Almighty. Focus and be patient. He will guide you kabi jumalarga duch kelamiz. Shu yerda bu jumalarning leksik-semantik tarjimasiga etiborimizni qaratsak. Demak bu yerda tarjima quyidagicha bo'ladi Robbingizga yanada yaqinroq bo'lishga intilayotgan bir vaqtda, atrofdagilar (insonlar) tomonidan bo'ladigan asossiz va bir pulga qimmat tazyiq va tahqirlarga chalg'imang. Diqqatli hamda sabr-toqatli bo'ling. Alloh yo'lingizni ochib qo'yadi. Ushbu tarjima jarayonida biz transformatsiyaning bevosita birinchi turi hisoblangan konkretlashtirish shu bilan birga kontekstlardan topish vositasida tarjima qilamiz. Sababi bu yerda kelgan the noises o'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qilsak o'zbek tiliga shovqin ko'rinishida tarjiam qilinadi.

Endi transformatsiyaning ikkinchi turi bo'lmish tarjimani umumlashtirish orqali amalga oshirishni ko'rib chiqqan bo'lamiz.

Umumlashtirish. Transformatsiyaning ikkinchi turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda umumlashtirish tarjimaning pragmatik xususiyatlariga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, asliyat matnidagi atoqli otlar o'sha tilda so'zlovchilar uchun informativ ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, lekin tarjimada bular hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi. Xulosa o'rnida tarjima amaliyoti, aksariyat hollarda asliyatda berilgan ma'noda tarjima ili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi aniqliklar umumlashtiriladi. Ingliz tilida odamning bo'yi, og'irligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. O'zbek tilida bo'y balandligi novchabaland, daroz so'zlari, vazn esa og'ir, yengil kabi aniqllovchilar bilan beriladi.

Tarjima qilayotgan asarimizda ham bu usul yordamida ham tarjima qilish ko'zga tashlanadi.

Misol tariqasida mana bu birliklarni keltirishimiz mumkin, do not allow your trials to tear you down and make you bitter. Misol qilingan bu jumalarni agar biz umumlashtirish qoidalariga amal qilmasdan tarjima qilsak kitobni o'quvchi inson bu yerda mantiqsizlik hamda g'alizlikka duch keladi.

Uchinchi turdagi transformatsiya ikki hodisa o'rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan biri asliyat matnini atasa, ikkinchisi uning tarjima varianti deb hisoblanadi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda

mantiqiy tahlilini talab etadi. Matndagi vaziyat o'z navbatida semantik jihatdan rivojlantiriladi

Tarjimada sabab natija bilan almashtiriladi. Bunda eng asosiysi tarjimada til normasiga putur yetmasligi hisoblanadi. 'Often in our weakest moments we crumble' gaplari o'rtasida mantiqiy bog' liqlik hosil bo'lishi uchun uchinchi tur transformatsiya qo'llanilgan.

Transformatsiyaning to'rtinchi turi antonimik tarjima hisoblanadi. Bu degani ba'zi hollarda asliyatda qo'llanilgan so'z tarjimada antonim bilan almashtirilishini anglatadi, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar gapda inkor so'zi bo'lsa, u tarjimada tushirib qoldiriladi.

take it easy-tashvishlanaverma, i do not want to cheat-men to'g'risini aytaman' deb tarjima qilinishi mumkin.

Antonimik tarjimaga ehtiyoj paydo bo'lishining uchta asosiy sababi bor: 1) asliyat va tarjima tillar xususiyati 2) kontekst talablari 3) tarjima tilidagi an'anaviy normaning mavjudligidir.

Hech bir shubhasiz bu tur transformatsiya muallifi Mufti Menk bo'lgan va Karimov Suhrob tomonidan tarjima qilinayotgan 'Motivational Moments' asari tarjimasida ham uchraydi. Misol tariqasida Feed your mind with positive thoughts daily. Things will get better. Bear patience. Yes, it's bitter but you'll forget it all when you get there' jumllarini keltirib o'tamiz. Bu yerda Aqlingizni befoyda narsalar bilan to'ldirmang. Shunda hammasi ajoyib bo'ladi. Albatta sabrli bo'lish orqali. Tushunaman bu oson bo'lmasligi mumkin biroq najot yo'li yolg'iz shu. Yuqoridagi keltirilgan iqtiboslarning eng avvalgi misralariga e'tibor qilsak asliy til ya'ni Ingliz tilida bu 'positive' shakl ya'ni inkor bo'lmagan holda keltirilgan.

Ammo biz uni o'zbek tiliga antonimik tarjima usli yordamida tarjima qilib, uni 'negative' ko'rinishida beramiz.

Xulosa o'rnida shuni bayon qilamizki, har qanday asar tarjimasini yuqoridagi transformatsiya usullarisiz tarjima qila olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mufti Menk 'Motivational Moments', ALQ creative Pte.Ltd, Singapur
2. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov 'Tarjima nazariyasi' (108-114 betlar), "Tafakkur Bo'stoni", Toshkent-2012
3. Yulduz Otaxonovna Masharipova. "Tarjima amaliyotida leksik transformatsiyalarning ahamiyati. Researchgate.net
4. Бархударов Л.С. "Язык и перевод. М. Международные отношения. (45-210-betlar) 1979